

ISSN 2181-7138

# **МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ**



***Илимий-методикалық журнал***

---

**2024**

**2-сан**

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳэм хабар агентлиги тәрепинен  
2007-жылды 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

## МАЗМУНЫ

### ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

<b>Sobirov B.N.</b> She'riy asar tarjimasida ruhiy-emotsional holat ifodasi muhim omil sifatida (Ibroyim Yusupov asrlari misolida) .....	7
<b>Sobirov B.N.</b> Tarjimada asliyat va uni idrokda qayta tiklash tamoyillari ( Ibroyim Yusupov ijodi misolida) .....	13
<b>Turdibekova R.Sh.</b> Interfaol metodlaridan foydalanib o'zbek tili fanini o'qitish usullari .....	17
<b>Muxanova M.G.</b> Til va tafakkur hamda ularning o'zaro munosabatlari .....	21
<b>Ruzmetova D.A.</b> Zamonaviy xoriliy til o'qitish muammolari .....	25
<b>Muratova N.B.</b> O'zbek tilida tilak va tabrik nutqiy aktlarining milliy-madaniy belgisiga asoslangan verbal assotsiatsiyalashuvini o'rgatishda grafik organayzerlardan foydalanish .....	33
<b>Muratova N.B.</b> Leksemalarning gender xususiyatlariga asoslangan assotsiatsiyasini tilak va tabrik nutqiy aktida ifodalanishi .....	41
<b>Алибекова Р.Х.</b> Применение интерактивных методов на занятиях по русскому языку .....	45
<b>Мирзалиева Д.Б.</b> Использование информационно-коммуникационных технологий при обучении переводу .....	52
<b>Шабидинова З. И.</b> Формирование лексической компетенции при обучении иностранному языку .....	55
<b>Разакова Ш. Д.</b> Обучение посредством делания .....	59

### ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

<b>Мадалиев Я.Х.</b> Иброй Олтинсариннинг педагогик фаолияти ва гоялари .....	65
<b>Мадалиев Я.Х.</b> Абайнинг педагогик гояларида ибратли ва ҳикматли сўзлар тавсифи .....	70
<b>Qaxxarova N. N.</b> O'qituvchilarida kompetensiya va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	74
<b>Yo'ldoshev R.E.</b> Magistrantlarni tayyorlashda ilmiy-pedagogik ta'limgarayonining dinamik modeli .....	78
<b>Yaxshiboyeva S.T.</b> Ta'limgarayonining pedagogik-psixologik shart-sharoitlari .....	84
<b>Xo'jaqulov F.N.</b> Mantiqiy fikrflashning inson tafakkurini rivojlanishidagi ahamiyati .....	88
<b>Mirzayev S. A.</b> Ta'limgarayonining pedagogik-kadrlarning ekologik kompetentligini rivojlanishidagi imkoniyatlari .....	91
<b>Haydarov J.G'.</b> Zamonaviy ta'limgarayonining o'rni va unga qo'yilgan talablar .....	95
<b>Berdiyeva S.E.</b> Inklyuziv ta'limgarayonining oshirishning ahamiyati .....	99
<b>Ergashev J.</b> Tabiiy fanlarni integrativ yondashuv asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish .....	104
<b>Карахонова О.Ю.</b> Саноген фикрлашнинг педагогик таҳлили ва унинг муҳим xususiyatlari .....	108
<b>Raimberdiyev A.A.</b> Pedagogik qobiliyatni aniqlash va rivojlanishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	112
<b>Qosimova G.I.</b> Таълим жараёнини тадқиқ этишда sinergetika ilmiy tadqiqot yondashuvini sifatida .....	115
<b>Niyazov J.A.</b> Birlashtirilgan didaktik interfaol dasturiy tizimdan elektroenergetika fanlarini o'qitishda foydalanishning nazariyah tahlili .....	120
<b>Muratova Sh.I.</b> Umumiy pedagogik fanida talabalarni bilim, ko'nikmalari va o'quv natijalarini diagnostikasi .....	125
<b>Baratova N.T.</b> Ta'limgarayonining faoliyatini boshqarish imkoniyatlari .....	130
<b>Yarmanova Yu.B.</b> Шахс ижтимоий-маданий адаптацияси ва уни шакллантириш омиллари .....	134
<b>Samadov M.S.</b> Ahamiyatli usullar yordamida kimyoiy reaksiyalarning tezligi aniqlash .....	138
<b>Raximov F.R.</b> Bolalar iqtidorini rivojlanishning boshqarishning tuzilma-funksional modeli .....	143
<b>Alimardonova M. X.</b> Biologiya fanidan kitobxonlik anjumanlarini o'tkazish .....	149
<b>Xalilova H.M.</b> Tarbiya darslarini loyihalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish ijtimoy zaruriyat sifatida .....	155



<b>Ibragimova G. R.</b> Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari .....	437
<b>Botirova L.L.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvi .....	441
<b>Xamidjonova M.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati .....	446
<b>Jumayev F.A., Raximova L.B.</b> Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'qitilishining didaktik ahamiyati .....	450
<b>Тиркашова Г.Б.</b> Умумтаълим мактабларида инновацион бошқарув фаолиятинининг зарурати ва имкониятлари хусусида .....	453
<b>Nortojiyeva M. Z.</b> O'quvchilarni arifmetik amallar yordamida og'zaki hisoblash usullariga o'rgatish .....	459
<b>Normatova N.K.</b> Adaptivlik tushunchasining mazmuni va mohiyati .....	465
<b>Xo'jaqulov A.E.</b> Possibilities of game activities in the formation of a valuable attitude towards the family in children of the preschool educational organization .....	469

## ТАСВИРИЙ САЪННАТ

<b>Gulmurodova D.M.</b> Ta'lif tizimida o'quvchilarga rangshunoslik tarixini o'rgatish .....	474
<b>Baymetov B. B.</b> Oliy pedagogik ta'lilda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini badiiy-ijodiy rivojlantirish va kasbiy faoliyatga tayyorlash shartlari .....	479

## ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

<b>Abdullaev I.</b> Jas futbolshilardıň texnik-taktik tayarlığın jetilistiriwdiň zamanagóy usilları .....	484
<b>Bobomuradov S .E.</b> Yosh futbolchılarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishning vosita va usullari .....	488
<b>Suvonov Q.Yo.</b> Kurash turlari nazariyasi va metodlari tasnifi .....	493
<b>Yoziyeva U.L., Ergasheva N.</b> Sog'gom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik asoslari .....	498
<b>Yusupov E. T.</b> Kurash sport turning qoidalari texnika va taktikasi .....	502
<b>Boltabayev Sh. O.</b> Turli toifadagi gandbolchilarining tayangan holda darvozaga to'p otish hujum texnikasi kinematikasini aniqlash va solishtirish .....	507
<b>Xabibullayev S.X.</b> "Yosh futbolchilarning musobaqa va mashg'ulotlardagi individual texnik-taktik harakatlarining samaradorligini o'rganish" .....	519
<b>Shukurllayev J. M., Murodova R. M.</b> Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash .....	524
<b>Nurmatov F.A.</b> Pedagogik kategoriya sifatida kompetentlilikning mohiyati va uning bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari faoliyatidagi o'rni .....	528
<b>Арзыбеков Т.</b> Проблемы спортивного отбора .....	534
<b>Арзыбеков Т.</b> Проблема допинга в спорте .....	540
<b>Baylepesov K., Seydaliev S.</b> The bases of command formation in rowing .....	547



## “YOSH FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA VA MASHG’ULOTLARDAGI INDIVIDUAL TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINING SAMARADORLIGINI О’RGANISH”

Xabibullayev S.X.

*CHDPU, Jismoniy madaniyat nazariyasi kafedrasи katta o‘qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** futbolchilar, mashg’ulot, musobaqa, individual, texnika, taktika, harakatlar, samaradorlik, tahlil.

**Ключевые слова:** футболисты, тренировка, соревнование, индивидуальный, техника, тактика, действия, эффективность, анализ.

**Key words:** football players, training, competition, individual, technique, tactics, actions, efficiency, analysis.

Dunyo miqyosida futbol o‘yinining sur’ati jadal oshib bormoqda. Zero bu futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik darajasini doimiy o‘sib borishi bilan bog‘liq bo‘lib, shu orqali maydondagi harakatlar ko‘lami kengayib bormoqda. Ushbu omil futbol bo‘yicha zaxiralarni ta’minalash bilan birga yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligiga ham yuqori talablarni qo‘yadi, bu esa yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik darajasini oshirish va ularning o‘quv mashg’ulotlari sifatini yaxshilash talabini keltirib chiqaradi. Shuni inobatga olgan holda sport maktablarida futbol mashg’ulotlarini tashkil etish va ularda shug‘ullanuvchi futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirish ham dolzarb masalalardandir.

O‘zbekistonda barkamol avlodni tarbiyalash, qobiliyatli yoshlarni futbolga faol jalb etish, milliy futbolimizni yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, yosh futbolchilarni tanlab olish va ularda professional mahorat hamda ko‘nikmalarni chuqr rivojlantirishni ta’minalash, shuningdek, ulardan futbol bo‘yicha mamlakat klublari va terma jamoalariga ishonchli zahirani shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator Farmon va Qarorlari qabul qilindi. Jumladan 2018 yil 16 martdagi PQ-3610-son “Futbolni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019 yil 4 dekabrdagi PF-5887-son “O‘zbekistonda



futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2023 yil 7 apreldagi PQ-115-son “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘sishimcha choratadbirlari to‘g‘risida” gi, 2024 yil 20 martdagি PQ-245-son “Mahallalarda futbol infratuzilmasini rivojlantirish va tarmog‘ini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qaror va Farmonlar futbolni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi [1].

Tadqiqotning maqsadi Yosh futbolchilarining mashg‘ulot va musobaqlardagi individual texnik-taktik harakatlarining samaradorligini o‘rganish.

Tadqiqotning vazifalari:

- yosh futbolchilarining texnik-taktik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan ilmiy manbalarni tahlil qilish;
- yosh futbolchilarining mashg‘ulot va musobaqlardagi individual texnik-taktik harakatlarining samaradorligini tahlil qilish orqali ularning texnik-taktik tayyorgarligini baholash va tavsiyalar ishlab chiqish.

Yosh futbolchilar bilan ish boshlagan har bir murabbiy avvalo uning texnikasini rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. To‘pni tepishni, olib yurishni, uzatishni, qabul qilishni, oyoq va boshda zarba berishni o‘rgatadi. Shug‘ullanuvchilar bilan yil davomida har hil mashg‘ulotlar o’tkiziladi.

Hozirgi zamondagi nuktai nazar asosida aytish mumkinki, futbol texnikasiga, ongli ravishda bajariladigan harakatlarga 9-11 yoshdan boshlash o’rgatish uslubiy jihatdan to‘g‘riroq. Bunda to‘g‘ri rivojlanayotgan bolalar futboldagi harakatlarni o‘rganish uchun zarur imkoniyatlarga egalar. Biroq bu yosh futbolchilar 9-11 yoshgacha to‘p bilan shug‘ullanmasliklari kerak, degani yemas. Ma’lumki, eng kichik yoshdan boshlab bolalarning sevimli o‘yinchog‘i to‘p (koptok) hisoblanadi [2,3].

Kichik yoshda bolalarni futbol texnikasi elementlariga majburan o’rgatib bo’lmaydi. Bu yoshda bolalarga ruxsat berish mumkin bo’lgan yagona narsa shuki, bolalar boshqa erkin o‘ynaladigan o‘yinlar bilan bir qatorda to‘pning xususiyatlari bilan tanishishlari lozim, chunki bu yoshda “to‘pni bola emas, to‘p bolani harakatlantiradi”. U tajriba orttiradi, unda to‘p bilan muomala qilish borasida minimal malakalar avtomat ravishda hosil qilinadi.

Futbol o‘yinida taktika har doim ham muhim ahamiyatga ega. Futbol texnikasi arsenalining ko‘payishi, o‘yinchilar jismoniy tayyorgarligining o’sishi, o‘yin qoidalari hamda tizimining o‘zgarishi, yanada takomillashib borayotgan mashg‘ulot sikli o‘yinni ongli ravishda tashkil qilishda amaliy rejalar, izlanishlar, yangilanishlarga keng yo‘l ochib berdi. O‘yin maydonida kechadigan strategik kurash, hujum va himoya o‘rtasidagi olishuv, yanada yangi va kutilmagan taktik fikrlarni, yangiliklarni yuzaga keltiradi [4;5].

**Yosh futbolchilarning mashing'ulot va musobaqlardagi individual texnik-taktik harakatlарining tahлили  
1-jadval.**

F.I.SH. ampluasi	To‘pni to‘xtatish	To‘p uzatish	Raqibni aldab o‘tish	To‘pn i olib yurish (xavoda)	Darvozag a zarba berish	To‘pni olib qo‘yish (erda)	Jami TIX	Samaradorlik koeffisi %
1. Karimov Abdusalim Himoyachi +16/-5	11/4	6/2	2/1	-2	+3	5/3	-	6/3 +49/-20
2. Olimjonov Ferdavs Hujumchi +11/3-	4/1	3/1	-	7/4	5/2	2/1	9/3 2 ta-gol	69 itth 71 %
3. Mavltonov Kamron Himoyachi +18/6-	12/5	6/3	3/1	+1	+4	6/3	-	+43/-15 58 itth 74.1%
4. Begmatov Shoxrux Hujumchi +14/3-	5/1	4/1	-	6/4	4/2	2/1	10/3 3ta-gol	+47/-15 78 itth 76.9%



Yosh futbolchilarining o'yinlardagi individual texnik-taktik harakatlarini tahlili. Futbol maydonida futbolchilarning; darvozabon, himoyachi, yarim himoyachi, hujumchilarga bo'linishi bu futbol talabidir. Qisqacha qilib aytganda, har bir futbolchi o'z ampluasida ishtirok etishi- bu maydonda o'z vazifasini bajarishi demakdir. Ma'lumki, jamoa o'yin harakatlarini takomillashtirishga, raqib bilan kurashayotganda, har bir futbolchi zimmasiga aniq vazifa qo'yiladi. Futbolchining individual o'yini deganda, sheriklarining yordamisiz har bir o'yinchining raqibga qarshilik ko'rsata olishining har qanday ko'rinishini tushunmoq kerak. Bir o'yinda har bir futbolchi maydondagi ampluasiga qarab texnik-taktik harakatlarni bajaradi. Bunday harakatlarga to'pni to'xtatish, to'p uzatishlar, to'pni olib qo'yish (havoda yerda), to'pni olib yurish, to'pga zarba berish, to'pni yon chiziqdan tashlash, to'pni burchakdan o'yinga kiritish kabi bir qancha individual texnik-taktik harakatlarini bajarishadi [4;5].

Ilmiy manbalar tahlili asosida yosh futbolchilarning individual texnik-taktik harakatlarining samaradorlik darajasini baholash bo'yicha tajriba o'tkazildi. Tajriba Toshkent viloyati Chirchiq shahrida joylashgan sport maktabda shug'ullanuvchi yosh futbolchilarning mashg'ulot va musobaqalardagi individual texnik-taktik harakatlari tahlil qilindi (1-jadval).

Himoyachi Karimov Abdusalim 5 ta o'yinda o'rtacha 69 ta ITTH ulardan 49 tasi samarali, 20 tasini samarasiz bajargan. Samaradorlik ko'satkichi 71 % ni, Shu jamoaning hujumchisi Olimjonov Ferdavs 5 ta o'yinda o'rtacha 58 ta ITTH ulardan 43 tasi samarali, 15 tasini samarasiz bajargan. Samaradorlik ko'satkichi 74,1 % ni, Shu jamoaning himoyachisi Mavlonov Kamron himoyachisi 5 ta o'yinda o'rtacha 78 ta ITTH ulardan 57 tasi samarali, 21 tasini samarasiz bajargan. Samaradorlik ko'satkichi 73 % ni, Shu jamoaning hujumchisi Begmatov Shoxrux 5 ta o'yinda o'rtacha 62 ta ITTH ulardan 47 tasi samarali, 15 tasini samarasiz bajargan. Samaradorlik ko'satkichi 75,8 % ni tashkil qildi.

Himoyachi Karimov Abdusalim 5 ta o'yinda to'pni olib qo'yish (havoda) 37,5 %, to'pni olib qo'yish (erda) 33 %, to'pni to'xtatishda 23,8 %, nuqsonlarga yo'l qo'ygani, shu jamoaning boshqa bir himoyachisi Mavlonov Kamron 5 ta o'yinda to'pni olib qo'yish (havoda) 33 %, to'pni olib qo'yish (erda) 30 %, to'pni to'xtatishda 25 %, nuqsonlarga yo'l qo'ygani aniqlandi. Himoyachi Mavlonov Kamron, himoyachi Karimov Abdusalimga nisbatan o'yinda to'pni havoda va yerda olib qo'yishda kam nuqsonlarga yo'l qo'yan.

Shu jamoaning hujumchisi Olimjonov Ferdavs 5 ta o'yinda to'pni to'xtatish 21,4 %, raqibni aldab o'tish 36,3 %, darvozaga zarba berish 25 %, nuqsonlarga yo'l qo'ygani, shu jamoaning boshqa bir hujumchisi Begmatov Shoxrux 5 ta o'yinda to'pni to'xtatish 17,6 %, raqibni aldab o'tish 40 %, darvozaga zarba berish 30 %, nuqsonlarga yo'l qo'ygani aniqlandi.



Hujumchi Olimjonov Ferdavs, hujumchi Begmatov Shoxruxga nisbatan raqibni aldab o'tish va darvozaga zarba berishda kam nuqsonlarga yo'l qo'ygan.

Hujumchi Begmatov Shoxrux, hujumchi Olimjonov Ferdavsga nisbatan to'pni to'xtatishda kam nuqsonlarga yo'l qo'yganligi aniqlandi. Biz tadqiqotimiz davomida bitta jamoaning himoyasida va hujumida harakat qilgan o'quvchilarining samarali va samarasiz ITTH aniqlab, ularni bartaraf etish uchun amaliy tavsiyalar berdik.

Xulosalar. Mazkur tajribadan xulosa qilash mumkinki, o'yin davomida alohida amplulariga to'xtalab o'tadigan bo'lsak, hujumchilarga nisbatan himoyachilar, o'yin davomida to'pni olib qo'yishda, to'pni to'xtatishda, to'p uchun havoda kurashishda natijalari yuqoriliginini aniqlandi.

Himoyachilarga nisbatan hujumchilar harakatlarida raqibni aldab o'tish, to'pni olib yurish va darvozaga zarba berishda natijalarni yuqoriligi aniqlandi.

Olingan natijalardan xulosa qiladigan bo'lsak, turli amplua o'yinchilarining o'yindagi kamchiliklarini bartaraf etishga qaratilgan mashqlarni ishlab chiqish va o'tkazilgan tahlil asosida yosh futbolchilarining o'yinlardagi qaysi texnik elementlarni bajarishda ko'proq nuqsonlariga yol qo'yayotganini aniqlab murabbiyya amaliy tavsiyalar berdik.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 20 martdagи PQ-245-son "Mahallalarda futbol infratuzilmasini rivojlantirish va tarmog'ini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risi" da Qarori.
2. Akramov R.A. Yosh futbolchilarini tanlab olish va tayyorlash: O'quv qo'llanma.-T.1989.-87 b.
3. Akramov R.A. Futbol darslik: O'quv qo'llanma. O'z.DJTI.:2006.- 406 b.
4. Qurbonov O.A. Yosh futbolchilarda bosh bilan to'p oshirish va zarba berish aniqligini takomillashtirishning noan'anaviy usullari: O'quv qo'llanma.- T.:2008.-128 b.
5. Махамаджанов Ф.Р. Подготовка юных футболистов с учетом возрастных особенностей. Автореф.дис. ... док. фил. пед. наук. (PhD) по педагогическим наукам. Чирчик 2019. - 55 С.

#### **РЕЗЮМЕ**

Maqolada yosh futbolchilarining individual texnik-taktik harakatlarining samaradorligini baholash natijalari yoritilgan. Bunda olingan natijalar tahlil qilinib o'zaro solishtirish asosida aniq va noaniq texnik-taktik harakatlar aniqlangan. Mazkur ma'lumotlar murabbiylarga keyingi mashg'ulotlarni to'g'ri rejorashtirish uchun xizmat qiladi.

#### **РЕЗЮМЕ**

В статье описаны результаты оценки эффективности отдельных технико-тактических действий юных игроков. На основе анализа и взаимного сравнения полученных результатов были определены ясные и неясные технико-тактические действия. Эта информация поможет тренерам правильно спланировать следующие тренировки.

#### **SUMMARY**

The article describes the results of evaluating the effectiveness of individual technical and tactical actions of young players. Based on the analysis and mutual comparison of the obtained results, clear and unclear technical and tactical actions were determined. This information will help the coaches to plan the next training sessions correctly.